

ABDUSATTOROV Ilhom Baxriddinovich,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish
ICESCO kafedrası tayanch doktoranti

MUHAMMAD YUSUF BANURIY ASARLARINING ISLOM ILMLARINI O'RGANISHDAGI O'RNI

THE PLACE OF MUHAMMAD YUSUF BANURI'S WORKS IN THE STUDY OF ISLAMIC SCIENCES

МЕСТО ТВОРЧЕСТВА МУХАММАДА ЮСУФА БАНУРИ В ИЗУЧЕНИИ ИСЛАМСКИХ НАУК

Annotatsiya. XX asrda yashab ijod qilgan hamda “Muhaddis al-asr” (“Asr muhaddisi”) unvoniga sazovor bo'lgan hindistonlik olimlardan biri Muhammad Yusuf Banuriydir. Ushbu maqolaning kirish qismida olimning hayot yo'li va “Devband madrasasi” (“Dor al-ulum Devband”) da faoliyat yuritgan ustozlari Ashraf Ali Tahonaviy, Anvar Shoh Kashmiriy, Shabir Ahmad Usmoniylarning uning olim sifatida kamol topishidagi o'rni to'g'risida fikr yuritilgan. Asosiy qismida esa, olimning ilmiy safarlari, ustozlari va shogirdlari, yozgan asarlari hamda u tomonidan asos solinga “Jomia al-ulum al-islomiya” haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Muhammad Yusuf Banuriy, “Maorif as-Sunan”, Dor al-ulum Devband, “Awarif al-Minan”, “Al-Muqaddimot al-Banuriya”, Muhaddis al-asr.

Аннотация. Мухаммад Юсуф Банури — один из индийских учёных, живших и работавших в XX веке, удостоенный звания “Мухаддис аль-аср” (“Мухаддис века”). Во введении статьи освещается жизненный путь ученого и роль его учителей в его научном развитии, таких как Ашраф Али Тахонави, Анвар Шах Кашмири, Шабир Ахмед Усмани, работавших в медресе “Дор аль-Улум Девбанд”. В основной части описываются научные поездки ученого, его учителя и ученики, а также его письменные труды и сведения об основанной им Джамия аль-улум аль-Исламия.

Ключевые слова: Мухаммад Юсуф Банури, “Маариф ас-Сунан”, Дар ал-улум Девбанд, “Авариф

аль-Минан”, “ал-Мукаддимот ал-Банурия”, “Мухаддис ал-аср”.

Annotation. Muhammad Yusuf Banuri is one of the Indian scientists who lived and worked in the 20th century and was awarded the title of “Muhaddis al-asr” (“Muhaddis of the Century”). In the introduction of the article, the scientist's lifepath and his teachers' role in his scientific development such as Ashraf Ali Tahonavi, Anwar Shah Kashmiri, Shabir Ahmed Usmani, who worked in the “Dar al-Ulum Devband” Madrasa, are illuminated. In the main part, the scientist's scientific trips, his teachers and students coupled with his written works and information about Jamia' al-ulum al-Islamiya, founded by him, are described.

Keywords: Muhammad Yusuf Banuri, “Maarif al-Sunan”, Dar al-ulum Devband, “Awarif al-Minan”, “Al-muqaddimot al-Banuriya”, “Muhaddith al-asr”.

KIRISH

XIX-XX asrda Hind diyoridan juda ko'plab olimlar yetishib chiqqan bo'lib, ular o'z uslublariga ko'ra hadisshunoslik, qur'onshunoslik va boshqa islomiy ilmlar bo'yicha o'z maktablarini yaratganlar. “Dor al-ulum Devband” universiteti bu borada yetakchi bilim dargohlaridan biri hisoblanadi. Devband madrasasiga Muhammad Qosim Nanutaviy 1866-yilda asos solgan. Ushbu madrasa bugungi kunda kelib “Azhar al-Hind” - Hindiston Azhari unvoniga sazovor bo'lgan. Hadis ilmi, Qur'on ilmi, aqid, fiqh ilmlari rivijiga ulkan xissa qo'shgan olimlar: Ashraf Ali Tahonaviy, Anvar Shoh Kashmiriy, Shabir Ahmad Usmoniy, Mahmud Hasan Devbandiy kabi o'nlab buyuk shaxslar mazkur bilim yurtida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanganlar. Ular yozib qoldirgan asarlar bugungi kunda butun musulmon olamidaga keng tarqalib, ba'zilar diniy ta'lim muassasalarida darslik sifatida o'qitib kelinmoqda. Birgina Ashraf Ali Tahonaviyning o'zi mingdan ortiq asarlar yozganligi manbalarda zikr qilingan.

Devband madrasida tahsil olib “Muhaddis al-asr” (Asr muhaddisi) unvoniga sazovor bo'lgan olimlardan biri Muhammad Yusuf Banuriydir. U Anvar Shoh Kashmiriyning xos shogirdlaridan bo'lib, uzoq yillar mobaynida uning xizmatida bo'lgan. Shu yillar asnosida ustozidan hadisshunoslik, qur'onshunoslik, fiqh, aqid ilmlarini mukammal o'rganishga harakat qilgan. Muhammad Yusuf Banuriy qoldirgan ilmiy

merosidan bugungi kunda ko'plab musulmonlar foydalanmoqdalar. Karachi shahrida u tomonidan asos solingan "Jomia' al-ulum al-islomiya"(Islom universiteti)da o'n ikki mingdan ortiq talabalar tahsil olmoqdalar. Bundan tashqari, olim hadis va Qur'on ilmlariga oid o'nlab asarlarning ham muallifi bo'lib, eng mashhur asarlaridan biri "Maorif as-Sunan" asari hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Shayx Muhammad Yusuf Banuriy 1908-yilda Mardon viloyati Mahobat Obod qishlog'ida tavallud topgan. Uning katta bobosi Sayyid Adam "Banur" qishlog'ida istiqomat qilganligi sababli unga "Banuriy" nisbati berilgan. Uning to'liq ismi manbalarda quyidagicha keltiriladi. Sayyid Muhammad Yusuf Banuriy ibn Muhammad Zakariya ibn Mir Muzzammil Shoh ibn Mir Ahmad Shoh ibn Mir Muso ibn G'ulom Habib ibn Rahmatulloh ibn Abdulahad ibn Hazrat Muhammad Avliyo ibn Sayyid Adam Banuriy. Uning bobosi Sayyid Mir Ahmad Shoh Naqshbandiya tariqatining mashhur shayxlaridan biri bo'lib, ilm va taqvoda peshqadam insonlardan biri bo'lgan [5.18].

Shayx Muhammad Yusuf Banuriy Qur'oni Karim va boshqa ilmlardan dastlabki ta'limni otasi Sayyid Muhammad Zakariya va tog'asi Fazl as-Samdoniy Banuriydan oladi. So'ngra, Qobul va Peshovarda o'z davrining etuk olimlari Muhammad Solih Qilg'oviy va Jalolobod viloyati sud mahkamasi qozisi Shayx Abdulqodir Lamqoniydan turli fanlarga oid ko'plab ilmlarni o'rganadi. U yoshligidan barcha ilm sohalarini sabot bilan o'rganishga kirishadi va uning ilm olishga bo'lgan qiziqishi uni Hind diyoriga safar qilishga undaydi. 1926-yilda Devband madarasasiga o'qishga kirib, bu yerda ikki yil davomida Devbandning buyuk olimlari qo'lida hadis, kalom, fiqh va boshqa ko'plab ilmlarni o'rganadi. Unga ta'lim bergan ustozlari orasida zamonasining buyuk muhaddis olimlari Anvar Shoh Kashmiriy va Shayx Shabir Ahmad Usmoniylar ham bor edi. Banuriy bu ikki ulug' olimlar qo'lida hadis ilmiga oid ilmlarni mukammal egallashga harakat qiladi. Devband madrasasining taniqli olimlari Ashraf Ali Tahonaviy (vaf.1362/1943), Sayyid Husayn Ahmad Madaniy(vaf.1377/1957), Hindiston muftiysi Kifoyatulloh Dehlaviy(vaf.1376/1956)

lar Muhammad Yusuf Banuriy bilan zamondosh bo'lib, uning buyuk olim bo'lib yetishishida ularning xissalari ko'p bo'lgan.

Ustozlari Anvar Shoh Kashmiriy va Shayx Shabir Ahmad Usmoniylar Devbanddan Dobil shahridagi Islom universitetiga dars berish uchun ketishga qaror qilganlarida, ko'plab talabalar bilan birga Muhammad Yusuf Banuriy ham ustozlari bilan ketishga qaror qiladi. U uzoq yillar davomida Anvar Shoh Kashmiriy huzurida qolib, ko'plab sohalarga oid ilmlarni, jumladan, hadisshunoslik, qur'onshunoslik, fiqh va aqoid ilmlarini ta'lim oladi. Muhammad Yusuf Banuriy nafaqat islomiy ilmlar, balki arab adabiyoti va she'riyatida ham salmoq ijod qilgan adib hamdir.

U universitetda o'qib yurgan kunlarining birida ustozlari Anvar Shoh Kashmiriyga uni o'z xizmatiga olishini iltimos qilib arab tilida bir maktub yozadi. Maktubni o'qib ko'rgan ustozlari uning balog'ati va fasohatidan hayron qoladi. Banuriydan arab adabiyotini kimdan o'rganganini so'raydi. Shunda Banuriy arab adabiyotini hech kimdan o'rganmaganligini balki mustaqil o'rganganligini aytadi. Shunda ustozlari uning maktubini yuqori baholaydi. Adabiyotni hech kimdan o'rganishiga xojat yo'qligini aytib, o'z xizmatiga oladi [6.18].

Olim ilm-ma'rifat yo'lida kamol topib, ilm olish bilan birga hadis, tafsir, fiqh va adabiyot ilmlaridan dars berishga e'tibor qaratadi. Banuriy aytadi: "Men turli ilm sohalariga tegishli kitoblardan talabalarga dars beridim. Ayniqsa hadis ilmiga alohida e'tibor berdim: "Sahih al-Buxoriy", "Sahih al-Muslim", "Sunani Abu Dovud", "Jome' at-Termiziy", "Sunani Nasoiy", "Sunani Ibn Moja", Imom Molikning "Muvatto'si", "Muqadimatu Ibn Saloh" shular jumlasidandir".

Banuriyning qo'lida yuzlab talabalar tahsil olgan. Ular orasidan XX asrning mashhur olimlari shayx Mushot Molikiy(vaf.1399/1979), shayx Ibrohim Xataniy (vaf.1389/1969), shayx Sulaymon ibn Abdurrahmon (vaf.1397/1977), shayx Abdulaziz Uyun as-Savd al-Himsiy, shayx Ali Murod al-Hamaviy, doktor Mustafo as-Siboii(vaf.1383/1963), Doktor Taqiyiddin an-Nadaviy, shayx Abdulfattoh Abu G'udda Halabiy(vaf.1417/1996)lar Banuriydan hadis ilmi bo'yicha ijoza olganlar [9.45].

Muhammad Yusuf Banuriyning ona tili pushtu tili bo'lishiga qaramasdan, asarlarini asosan arab

tilida yozgan bo'lib, uning asarlari uslubining osonligi va badidiy jihatdan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun olim biror masalani yoritishda ilojini boricha gapni cho'zib yobormaslikka, tushunilishi oson jummalarni ishlatishga harakat qiladi. Uning quyidagi aytgan gaplari diqqatga sazovordir. "Men uchun arab tilida kitob yozish fors tilidan, fors tilida yozish urdu tilidan, urdu tilida yozish esa pushtu tilidan osonroq". Uning ushbu e'tirofidan shuni bilish mumkinki, u arab adabiy tilini mukammal darajada bilgan. Shuning uchun, u ko'pincha biror risola yozsa, xatolarini tekshirmasdan to'g'ridan-to'g'ri nashr qilish uchun yuborar edi [1.42].

Banuriyning shogirdlaridan biri Abdulfattoh Abu G'udda aytadi: "U (Banuriy) har bir ilm talab qiluvchi va o'rganuvchi uchun ilm va fazilatlar hazinasi edi. Fikri o'tkir bo'lib, hidoyat izlagan va to'g'ri yo'l qidirganlar uchun yo'lini yorituvchi yorqin shamchiroq edi. Shu bilan birga, amali ko'p, xotirasi mustahkam, dengiz kabi mavj urgan, kavsar kabi musaffo edi. U shunday inson ediki, u bilan ham suhbat bo'lgan ilm ahli va zohid kishilarning qalblari undan ziynatlanardi. U zot men uchun shodlik, malham, hech bir tolibi ilm yetisha olmaydigan, tashna kishi ichib to'ymaydigan totli buloq edi. U ilmda, dinda, jiddu jahdda, musulmonlar va islomga g'ayirlik va adovat qiluvchilarga qarshi kurashda shu asrning Yusufi edi" [3:16].

Shuni ta'kidlash lozimki, Muhammad Yusuf Banuriy butun hayotini ilm olishga yoki ilm berishga bag'ishlagan serg'ayrat inson bo'lgan. U ilmiy faoliyati davomida ko'plab asar yozgan bo'lib, ular ichida eng mashhuri **"Maorif as-Sunan sharh al-Jome' at-Temiziy"** asaridir. Mazkur asar "Maorif as-Sunan" nomi bilan tanilgan bo'lib, XX asrda "Sunani Termiziy"ga yozilgan sharhlar ichida o'ziga xos uslubi bilan ajralib turadi [4.20]. Olim uni o'zining ustози Anvarshoh al-Kashmiriyning dars jarayonida bayon etgan fikrlariga asoslanib yozgan. Ushbu kitob ham hanafiy mazhabidagi muhim sharhlardan biri hisoblanadi. Muallif "Sunani Termiziy"dagi hadis sanadiga to'xtalmasdan, matnning nahviy tahlili va undan chiqariladigan fiqhiy hukmda ahli sunna va jamoatdagi to'rtta fiqhiy mazhab imomlari fikrlarini qiyosiy tahlil etgan. Shuningdek, muayyan hadis boshqa hadis to'plamlarida rivoyat

qilingan bo'lsa, ular ham sanab o'tilgan. Qolaversa, Abu Iso at-Termiziyning muayyan hadis borasida qo'llagan hadis atamalariga ham izohlar berilgan [2.343]. "Maorif as-Sunan" sharhi juda ko'plab islom ulamolarining e'tirofiga sazovor bo'lgan. Ammo, ushbu sharh haj bo'limigacha bo'lib, olim uni oxiriga yetkaza olmagan. Shunday bo'lsada sharhning manashu qismining o'zi olti jildidan iborat bo'lib 1968-yilda Karachida nashr etilgan.

Mashhur olim Muhammad Taqiy Usmoniy "Maorif as-Sunan" to'g'risida shunday deydi: "Kim Anvar Shoh Kashmiriyning hadisga oid ilmlarining lazzatini tatib ko'rishni istasa, "Maorif as-Sunan"ni mutolaa qilsin" [3.15].

Shuningdek, olim ko'plab asarlarga muqaddima yozgan bo'lib, **"A'vorif al-minan muqaddimatu Maorif as-Sunan"** uning eng mashhur muqaddimalaridan biri hisoblanadi. Alloma ushbu asarda buyuk muhaddis Abu Iso at-Termiziy hayoti va faoliyatiga oid muhim manba bo'lib, muallif unda Termiziy haqida juda ko'p ma'lumotlarni jamlagan. Bundan tashqari, asarda islomda fiqh ilmining o'rni va ahamiyati haqida ham to'xtalib o'tiladi.

Darhaqiqat, Muhammad Yusuf Banuriy uztozi Shayx Kashmiriy bilan juda uzoq vaqt davomida birga bo'lib, uning hayot tarzi, ilmiy faoliyatiga doir bir risola yozgan bo'lib, uni **"Nafhatu al-anbar fi hayati imom al-asr shayx Kashmiriy"** deb nomlaydi. Ushbu asar Shayx Kashmiriyning nasl-nasabi, siyrati, ilm yo'li, ibratlari so'zlari va yana uning faoliyati bilan boq'liq bo'lgan juda ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Asar 346 sahifadan iborat bo'lib, birinchi marta 1353/1932-yilda Dehlida nashr qilingan. Oradan bir necha yillar o'tib 1969-yilda Karachida yana bir bor nashr qilingan.

"Bag'yatu al-aryab fi maso'il al-qibla va-l-mahariyb". Olim ushbu asarni yozishiga Inoyatulloh Xon al-Mashriqiyning: "Hindistondagi barcha masjidlarining qiblasi no'to'g'ri, shu sababli unda namoz o'qiganlarning namozi to'g'ri bo'lmaydi", deb fatvo berishi sabab bo'lgan. Banuriyning do'stalaridan Qozi Abdusalom undan qiblani aniqlash va u bilan bo'liq masalalarni batafsil yoritib berishni iltimos qilib maktub yozadi. Olim do'stining maktubiga javoban, qiblani aniqlash bo'yicha mufassal bir risola yozib, uni "Bag'yat al-aryab fi maso'il al-qiblata

val mahariyb” deb nomlaydi. Unda ko‘plab fiqh ilmi olimlarining qiblani aniqlash masalasidagi qarashlarini jamlab, Hindiston masjidlari qiblagaga to‘g‘ri yuzlanganligini isbotlab beradi. Ushbu asar 1357/1940-yilda Qohirada nashr qilingan.

Yatimatul bayon fi shay’in min ulumul Qur’an. Alloma mazkur asarni uztozi Anvar Shoh Kashmiriyning “Mushkilotul Qur’on” asariga muqaddima sifatida yozib, unda Qur’on ilmlariga doir ma’lumotlar bayon qilingan.

Olimning yana bir mashhur asarlaridan biri **“al-Muqaddimot al-Banuriya”** bo‘lib, ushbu asar qirq beshta muqaddimani o‘z ichiga oladi. Ulardan “Muqaddimatu fayz al-boriy”, “Muqaddimatu aqida al-islam”, “Muqaddimatu Lomi’ ad-duroriy”, “Muqaddimatu maqolot al-Kavsariy” kabilarni misol qilib keltish mumkin.

“Al-Ustoz al-Mavdudiy va shay’un min hayatihi va afkaarih”. Ushbu asar ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi “Al-ustaz al-Mavdudiy va shay’un min hayatihi va afkaarih” nomi bilan 1976-yilda, asarning ikkinchi, “Kashf ash-shubha anil-jamoat at-tablig‘iya” deb nomlangan qismi esa 1977-yilda nashdan chiqqan. Mazkur asarning to‘ldirilgan shakli 2005-yilda Istanbulda ikkila qismi jamlangan holda nashr qilingan. “Al-kitab fassul xitami fi mas’alati al-fatiha xolfa al-imam”, “Kitab al-vitr” kabi asarlarni ham yozgan [4.76-77].

Muhammad Yusuf Banuriy nafaqat buyuk olim balki adib va shoir hamdir. Uning Payg‘ambarimiz Muhammad(s.a.v)ga go‘zal axloqlari va sifatlariga bag‘ishlangan “Shazarot al-adab fi madih sayyid al-arab va-l-ajam”(“Arab va ajamlarning sayyidini madh etishda adabiyot marvaridlari”), va “Na’t an-Nabiy al-karim sollallohu alayhi vasallam” (“Oliyjanob Payg‘ambar(s.a.v)nig fazilatlarini”) nomli ikki qasidasi 1938-yilda Qohirada “al-Islom” jurnalining maxsus sonida nashr qilingan. Bundan tashqari olim Abu Iso at-Termiziy, uztozi Anvar Shoh Kashmiylarga ham ba’g‘ishlangan qasidalar bitgan. Olimning barcha yozgan qasidalari shogirdi Doktor Muhammad Habibulloh Muxtor tomonidan jamlanib, “al-Qasoid al-Banuriya” nomli to‘plam sifatida nashr qilingan.

Olimning arab adabiyotida salmoqli ijodiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar ham e’lon qilingan bo‘lib, birinchisi, Ismoil Xon, Sardar Ahmad

va Xalil Ahmadlar tomonidan yozilgan “Sheikh Muhammad Yusuf al-Banuri and his impact on arabic writing”, ikkinchisi Kulsum Riyoz va Homid Ashraf Hamadoniylar tomonidan yozilgan “Osor al-Qur’on va-l-hadis fi-l-qasoid al-banuriya” nomli maqolalardir.

Muhammad Yusuf Banuriy buyuk olim bo‘lish bilan birga jonkuyar tashkilotchi ham bo‘lgan. U 1954-yilda Karachi shahri “Banuriy Town” dahasida “Al-madrassa al-arabiya al-islomiya” nomli bilim yurtiga asos solgan. Dastlab, Islom shariati fakultetiga o‘n nafarga yaqin talaba qabul qilinib, o‘quv xonalari bo‘lmagan ochiq maydonda talabalarga dars berishni boshlaydi. Shundan so‘ng, u talabalar ta’minoti va o‘qituvchilarga maosh berish uchun do‘stlaridan qarz oladi. Alloma dastlabki yillarda ko‘p qiyinchiliklarga duchor bo‘lishiga qaramay, sabr-bardosh bilan ilm dargohini kengaytirishga harakat qiladi. Dars o‘tish uchun bir yoki ikki xona va talabar uchun turar joy qurdiradi. Keyinchalik uning qoshida “Jomiatu-l-ulumu-l-islomiya” universitetiga asos solinib, uch qavatdan iborat bir necha muhtasham imoratlar barpo etildi. Universitet qoshida boshlang‘ich va o‘rta maktablar tashkil qilindi. Hozirgi kunda bu universitet xalqaro darajadagi mavqe’ga ega bo‘lib, u yerda Pokiston, Hindiston va butun dunyo musulmon mamlakatlaridan kelgan o‘n ikki mingdan ziyod yoshlar ta’lim olishadi [12].

Muhammad Yusuf Banuriy 1977-yilda Islomobod shahrida Pokiston Musulmonlari Kengashining majlisi vaqtida yurak xuruji kasalligi bilan shifoxonaga yotqiziladi. Oradan ikki kun o‘tib 17-oktabrda olamdan o‘tadi. Uning jasadi Karachiga yuboriladi va u asos solgan universitet hovlisiga dafn qilinadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Muhammad Yusuf Banuri butun hayotini ilm o‘qish yoki ilm berish bilan o‘tkazgan. Ayniqsa olimning quyidagi aytgan gaplari diqqatga sazovordir. “Men butun umrimni ta’lim dargohlarida yo talaba sifatida im olish bilan, yoki mudarris sifatida dars berish bilan o‘tkazdim”.

Muhammad Yusuf Banuriy ziyoli oilada tu’g‘ilib katta bo‘lganligi, barcha islomiy ilmlarni,

jumladan, Qur'on, hadis, va fiqh ilmlarini o'z davrining yetuk ulamolarilaridan olganligi uning buyuk olim bo'lib yetishishiga sabab bo'ldi. U adabiy arab tilini mukammal o'rganib, ko'p asarlarini arab tilida yozgan va asarlari tushunilishi oson va uslubi yengil bo'lishiga intilgan.

Uning hayoti va ijodi haqida fikr yuritar ekanmiz, uning asosiy maqsadi islom dinini turli buzg'unchi toifalarning xurujlaridan himoya qilish, islom ilmlari musaffoligini saqlash, yoshlarni ilmga targ'ib qilishga harakat qilganligida namoyon bo'ladi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muhammad Yusuf Banuriy. Maorif as-Sunan. – Karachi, 1979. 1-jild.
2. Abu Iso at-Termiziy. “Sunani Termiziy” sharhi. 1-Jild // Sharhlab, nashrga tayyorlovchilar: H.Aminov, M.Ismoilov, H.Abiyeb, B.Abdullayev. – Toshkent: Irfon-Nashr, 2021. – 400 b.
3. Muhammad Yahyo Bilol Manyor. Dirosa hadisiyya fiqhiyya an Maorif as-Sunan sharh Sunani at-Termiziy. – Makka: Maktaba al-makkiya. 2006. – 774 b.
4. Hakim al-Islam Hazrat Maulana Qari Muhammad Tayyib. History of the Dar al-Ulum Devband. – Gujarat, 1981. – 455 b.
5. Ismail Khan, Sardar Ahmed, Khalil Ahmed. Sheikh Muhammad Yusuf al-Banuri and his impact on arabic writing // International Journal of Islamic Business. – Karachi: Administration and Sosial Scienses(JIBAS). Volume 1, Desember 2021. – P. 17-24.
6. Valiyuddin Taqiyuddin an-Nadaviy. Al-Muhaddis Muhammad Yusuf al-Banuriy va kitobuhu Maorif as-Sunan sharhu Sunan at-Termiziy // Nidou-l-Hind. Al-Bahs al-islomiy. Fevral/Iyun 2006. – P. 52-60/40-62.
7. Nizomiddinov X. Anvar Shoh Kashmiriyning ustoz va shogirdlari // Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2, November 2022. – P. 561-566. ISSN: 2181-1784 (SJIF 2022: 5).
8. Kulsum Riyoz, Homid Ashraf Hamadoniy. Asar al-Qur'on va-l-hadis fi-l-qasoid al-banuriya // Harf va suxan. Vol.8. No.2 2024. – P. 61-68. ISSN:2709-4022
9. Umar Anvar Badaxshoniy. Muhaddisu-l-asr sayyid Muhammad Yusuf Banuriy. – Karachi: Zam-zam publisher, 2011. – 190 b.
10. Abdulhay al-Hasaniy. As-Saqofa al-islomiya fi-l-Hind. – Qohira: Hindovi, 2015. – 306 b.
11. Shujo' ar-Rahmon al-A'zamiy. Manhaju-sh-shayx Yusuf Banuriy fi kitobihi “Maorif as-Sunan” // <https://platform.almanhal.com/Files/2/127836>. Murojaat sanasi 25.11.2024.
12. Muhaddith-ul-asr // www.banuri.edu.pk/en/page/muhaddith-ul-asr. Murojaat sanasi 25.11.2024.

